

ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFATDOSHLI KONSTRUKSIYALARNING SINTAKTIK VAZIFALARI

Raximova Gulshanoy Sharobidin qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

gulshanoyqobuljonova@gmail.com

Tursunboyeva Hayotxon Ismoiljonovna

Farg'ona tumani 14-maktab ingliz tili o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Quyidagi tezisda gapda ishtirok etuvchi qurilmalarning roli haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Va ularning sintaktik xususiyatlari keyingi qismlarda ikkala o'rganilayotgan tillardagi real misollar yordamida oydinlashtiriladi.*

***Kalit so'zlar:** qurilmalar, matn, gap, hol, murakkab, kesim, sifatdoshtar.*

***Abstract:** The following thesis presents some information about the role of constructions involved in the sentence. And their syntactic features will be clarified in the following parts by the help of real examples in both studied languages*

***Key words:** constructions, text, sentence, case, complex, participle, adjectives.*

***Аннотация:** В следующем тезисе представлены некоторые сведения о роли средств, используемых в предложении. А их синтаксические особенности будут разъяснены в следующих частях на реальных примерах из обоих изучаемых языков.*

***Ключевые слова:** приемы, текст, предложение, падеж, комплекс, причастие, прилагательные.*

Zamoniy tilshunoslikda ikki tilni taqqoslab o'rganilar ekan, o'ziga yarasha o'xshashlik hamda farqli jihatlari tilshunoslikning har bir bo'limida uchrashi tabiiy holatligu ayon. Shu jumladan, ingliz tilidagi sifatdoshli qurilmalar ham, sintaktik vazifalari jihatdan o'zbek tilidagi muqobillari bilan sezilarli farqli jihatlarga ega. Quyida ingliz tilidagi sifatdoshli qurilmalarning, sintaktik tahlili ham misollar yordamida tahlilga tortiladi.

Dunyo tilshunosligida sifatdoshli qurilmalarning sintaktik vazifalarini rus tilshunoslari **K.A.Guzyeyeva, N.I.Lisitsina, K.V.Polyevaya, V.L.Kaushanskaya** oʻz ilmiy izlanishlarida keng yoritgan. [4] Quyidagi tahlillarimiz ana shu lingvistlar bergan maʼlumotlarga asoslanib olib boriladi.

Obyektiv sifatdoshli predikativ qurilmalar gaplarda doimo oʻtimli feʼl bilan ergashib keladi va gapning ajralmas qismi boʻlgan hamda ergash gapga mos keladigan *murakkab toʻldiruvchi* vazifasini bajaradi. Yaʼni, bunday qurilma hosil qilgan *murakkab toʻldiruvchi* gap ergash gapga aylantirilishi mumkin. [2]

They saw him swimming across the river. (Ular uni daryoni kesib suzib oʻtganini koʻrishdi.)



They saw how he was swimming across the river. (Ular uni daryoni qanday suzib oʻtganini koʻrishdi.)

Oʻzbek tilshunosligida bu holat ham sifatdosh yordamida yasalgan murakkab toʻldiruvchi hisoblanadi, hamda tushum kelishigi bilan oʻtimli feʼlga bogʻlanib keladi. Bu murakkab toʻldiruvchini qoʻshma gapga aylantirish uchun koʻrsatish olmoshlarini toʻldiruvchi vazifasida qoʻllab hosil qilish mumkin.

Ular shuni koʻrishdiki, u daryoni kesib suzib oʻtdi.

Sifatdosh II yordamida yasalgan qurilmalardan gapda muayyan gap boʻlagini oʻzi alohida koʻrsatmaydi, balki boshqa boʻlaklar tarkibida keladi. Yaʼni sintaktik jihatdan murakkab ega vazifasini bajaradi. Aniqroq tahlil qilinganda, Subyektiv sifatdoshli qurilmalarning *otga* xos komponenti **ega** vazifasida, *feʼlga* xos komponenti **murakkab kesimning bir qismi** vazifasida keladi.

S **P** part of the compound predicate



The sound of footsteps was heard crossing the hall at midnight.

(Yarim tunda zalni kesib o'tgan qadam tovushlari eshitildi.)


Yuqoridagi misolda ‘**The sound of footsteps crossing**’ subyektiv sifatdoshli qurilmani hosil qilayapti. Bu yerda ‘**The sound of footsteps**’ egani, ‘**crossing**’ sifatdoshi murakkab kesimni shakllanishiga xizmat qilayapti.

O'zbek tilshunosligida bu holat *murakkab ega* vazifasidagi birikmalar orqali namoyon bo'ladi.

Otlarning otxonaga olib o'tilmagani Ziyodillani taajjublantirdi. (Hamid G'ulom)

Mutlaq nominativ sifatdoshli qurilmalar gaplarda holning bir qancha ma'no turlarini shakllantirib keladi.


a) *Payt holi vazifasida:*



The moon having risen, we decided to continue our way.

(Oy ko'tarilgach, biz yo'limizni davom ettirishga qaror qildik.)


b) *Sabab holi vazifasida:*



The tutor being ill, the lesson was postponed.

(Repetitor ustoz kasal bo'lib qolganligi uchun, dars qoldirildi.)

Bunday holatlarda hol ko'rsatayotgan ish-harakatning bajaruvchisi hamda ega bir shaxs hisoblansa, hol tarkibidagi bajaruvchi shaxs tushib qolishi mumkin.



(He) Having lost his pen, he couldn't write at all.

([U] Qalamini yo‘qotib qo‘ygani uchun, umuman yoza olmadi.)


O‘zbek tilshunosligida bu ma‘nodagi gaplar hol orqali emas, balki sabab ergash gapli qo‘shma gaplar yordamida ifodalanadi.

Atrofdan noxush voqealar yuz berganligidanmi, shoirning ko‘ngli g‘ash edi.

(Oybek)

c) *Holat holi vazifasida:*

S com.predicate adv.modifier



She stared and turned, I following her.

(U tikildi va o‘girildi, men esa uning ortidan ergashdim.)


O‘zbek tili grammatikasida vaziyat ma‘nosidagi gaplar hol orqali emas, balki ergash gap orqali ifodalanadi. [5]

Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko‘p ediki, so‘rab oxiriga yetolmasday ko‘rindi. (Asqad Muxtor)

Mutlaq predlogli sifatoshli qurilmalar esa gaplarda Mutlaq nominativ sifatoshli qurilmalardek hol vazifasini bajaradi, ya‘ni asosan *holat holi* hamda *sabab holini* ifodalash uchun xizmat qiladi.

a) *Holat holi sifatida:*

S P adv.m adv.modifier



We were walking on again, with John quietly drawing at his pipe.

(Jon jimgina trubkasidan tortgan holda biz yana yurayotgan edik.)

O‘zbek tilida bu holat hol ishtirokidagi soda gap orqali ifodalanadi. Va ingliz tilidagi bilan bir xil ma‘no ko‘rsatadi.


b) *Sabab holi sifatida:*

adv.modifier

S

P

part of sub.



With rapidly increasing the prices, it is becoming difficult to pay taxes.

(Narxlarning tez o'sishi tufayli soliq to'lash qiyinlashmoqda.)

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki sifatdoshli konstruksiyalar ingliz tilida ham o'zbek tilida ham ko'p izlanishlar talab qilayotgan tilshunoslikning dolzarb mavzusiligicha qolmoqda. Shu o'rinda o'zbek tilshunosligida qurilmalarning ishlatilish holati kam ekanligi hamda ma'lumotlarning kam ekanligi tilshunoslarni izlanilayotgan sohasiligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Davlatjonova, & G. Rakhimova (2023). POSITIVE EFFECTS OF THE BIOLOGICAL FACTOR ON WORK PERFORMANCE UNDER THE LEADERSHIP OF WOMEN AND GIRLS. *Science and innovation*, 2 (B11), 606-609. doi: 10.5281/zenodo.10232008
2. Mirzayeva, D., & Rakhimova, G. (2023, December). VERBIDS IN ENGLISH AND THEIR ALTERNATIVES IN UZBEK. In Fergana state university conference (pp. 101-101)
3. Б. А. Ильиш. “Стройсовременногоанглийскогоязыка”. 1971 Ленинград
4. Гузеева К. А. Причастие. Грамматика английского языка. 2008
5. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). - Т.: Ўқитувчи, 1995. - Б. 113